



# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021 - yil 1 iyul holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)






*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - iyul holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)

4

76 666



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

3 525



Oilaviy korxonalar

533



Unitar korxonalar

12 953



Xususiy korxonalar

226



Aksiyadorlik jamiyatlari


414



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-iyun oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,9** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,0** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




**12,0** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**12,8** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**1,4** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **12,2** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **1,2** foizga pasaydi






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,5** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




**12,5** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**13,2** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**1,3** martaga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **12,3** foizga oshdi




## Xususiy korxonalar



**10,8** foizga oshdi









## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021-yilning 1 - iyul holatiga ko'ra 3,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 11,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 11,6% ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 264 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 0,8 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni


(2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)





# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra 7,8 ming tani tashkil etib, ulardan 7,6 mingtasi yoki 96,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,9 mingtaga yoki 113,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 yilning yanvar-may oylarida 836 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)



# Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1370	711	659
Qozog'iston Respublikasi	731	296	435
Ozarbayjon Respublikasi	163	53	110
Ukraina Respublikasi	120	60	60
Qirg'iz Respublikasi	106	40	66
Tojikiston Respublikasi	91	37	54
Turkmaniston Respublikasi	57	21	36
Belarus Respublikasi	64	30	34
Armaniston Respublikasi	26	17	9
Moldova Respublikasi	17	5	12



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 18,0 %, Qozog'iston Respublikasi 9,6 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,14 %, Qirg'iz Respublikasi 1,5 % va Tojikiston Respublikalari 1,4 % ga to'g'ri kelmoqda.

# Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Toshkent shahri</b>	<b>7 608</b>	<b>3 036</b>	<b>4 572</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Uchtepa</b>	250	86	164
<b>Bektemir</b>	171	96	75
<b>Yunusobod</b>	952	398	554
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	978	408	570
<b>Mirobod</b>	1298	404	894
<b>Shayxontohur</b>	521	245	276
<b>Olmazor</b>	401	208	193
<b>Sirg'ali</b>	265	128	137
<b>Yakkasaroy</b>	1236	440	796
<b>Yashnobod</b>	593	262	331
<b>Yangihayot</b>	93	46	47
<b>Chilonzor</b>	850	315	535


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 296 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy – 1 209 ta (16,2 %) hamda Yunusobod tumanlarida 946 tani (12,6 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Uchtepa – 243 ta (3,2 %), Bektemir 169 ta (2,2 %) hamda Yangihayot 93 tani (1,2 %) tashkil etgan.



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)

15




2021 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,0 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,2 %), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (9,0 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (7,9 %), Sirg'ali – (4,9 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangihayot tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021 - yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)

2021 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,9 %), Yunusobod – (11,7 %), Mirzo Ulug'bek – (11,8 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (8,7 %), Yashnobod – (8,6 %), Mirobod – (8,1 %), Yakkasaroy – (7,6 %), Sirg'ali – (6,0 %), Bektemir – (2,0 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,7 %) tashkil etgan.





16



2021 - yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (12,1 %), Sirg'ali – (11,2 %), Yunusobod – (11,6%), Mirzo Ulug'bek – (10,6 %), Uchtepa – (9,8 %), Olmazor – (10,6 %), Shayxontohur – (8,0 %), Yangihayot – (8,3 %), Chilonzor – (6,4 %), Yakkasaroy – (5,6 %), Mirobod – (4,1 %) hamda Bektemir tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021 - yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**tel.: 71 203-88-31**